

YOSHLAR – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING NEGIZIDIR

Nematova Lola Xikmatovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti katta o‘qituvchisi

Mexmonova Nigina Faxritdinovna

O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi

Buxoro akademik litseyi ingliz tili o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning ezgu intilishlari, qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarishga qaratilgani, yoshlар ijtimoiy ma’noda ham kuchli, ham zaif jihatlarni o‘zida mujassamlashtirgani uchun ulardagи ijtimoiy faoliy, yuqori darajada ta’sirchanlik va yangiliklarga intiluvchanlik, ideallarga bo‘lgan ehtiyoj, olamni, borliqni ijodiy qayta qurishga tashnalik, qiziqqonlik kabi xislatlarni rivojlantirish zarurligi to‘g’risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, iste’dodli yoshlар, mantiqiy tafakkur, ilmiy – nazariy bilimlar, ong.

Jahondagi rivojlangan davlatlar o‘z faoliyatining turli sohalarini, shu jumladan, ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirishni ham tegishli milliy modellar asosida tashkil qilishgan. Dunyoda mustaqil ta’lim olish sifatini oshirish yoshlarning jamiyatda muvaffaqiyatli o‘z o‘rnini topishida muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, 2030 yilgacha qabul qilingan umumjahon ta’lim Konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” g‘oyasi yoshlarning zamonaviy ta’lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Yangi O‘zbekiston huquqiy demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borar ekan, o‘z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog‘lagan, o‘sib kelayotgan avlodning ma’naviy-axloqiy shakllanishiga alohida e’tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning ezgu intilishlari, qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarishga qaratilgani, ayniqsa davlatimiz rahbari ularni Vatanimizning eng katta boyligi va bebaho xazinasiga

qiyoslagani, mardligi va jasoratini yuksak e'tirof etgani bizni nihoyatda ruhlantirdi. Jumladan, mamlakatimizda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulugbek" jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida ikki yildan buyon talabalar, doktorantlar va tadqiqotchilar o'rtasida "Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari" nomli yilning eng yaxshi maqolasi tanlovi o'tkazib kelinmoqda.

Mustaqillik yoshlar turmush tarzida hamda ularning psixologiyasida ham chinakam global o'zgarishlar qildi, yoshlarni yangicha fikrlashga o'rgatdi. Ma'naviy kamol topgan insonlargina barkamol jamiyat qurishlari mumkin, shuning uchun hozirgi kunda yoshlarga jamiyatning tarkibiy qismi va o'ziga xos guruhi sifatida qarab, ularning har tomonlama rivojlanishi va shakllanish holatini shu jamiyat doirasida, uning ichki xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil qilish darkor.

Yoshlar ijtimoiy ma'noda ham kuchli, ham zaif jihatlarni o'zida mujassamlashtirgani uchun ularga, bir tomondan, ijtimoiy faollik, yuqori darajada ta'sirchanlik va yangiliklarga intiluvchanlik, ideallarga bo'lgan ehtiyoj, olamni, borliqni ijodiy qayta qurishga tashnalik, qiziqqonlik xos bo'lsa, ikkinchi tomondan sabrsizlik, bemulohaza tanqid qiluvchanlik, barcha narsani inkor etish jihatlari ko'zga tashlanadi. Yoshlar turmush tarzi - bu eng avvalo uning real borliq tavsifi, ularning nimalarni bajara olishi mumkinligining tavsifi. Yoshlarning ichki dunyosi ularning turmush tarziga faol ta'sir ko'rsatadi, shu bois yoshlar psixologiyasini, ichki dunyosini bilmay turib ularning hayot uslublarini bashorat qilib bo'lmaydi.

Yoshlarning dunyoqarashini rivojlantirish va ularni aniq hayotiy rejaga va maqsadga yo'naltirish, ayniqsa, o'quvchilik davrida shakllanadi, chunki o'quvchilik davrida kelajakka intiluvchanlik hissi yuqori bo'ladi. To'g'ri tanlangan istiqbol, aniq hayotiy rejalar va maqsadlar o'quvchilarning ijtimoiy amaliyotidagi ishtiroki bilan birlashib, ularning tajriba va bilim doiralari hamda dunyoqarashlarini kengaytiradi. Buning natijasida ularda mantiqiy mulohazalarga va dunyoqarashga asoslangan umuminsoniy tajribalar to'planadi.

Har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy – nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, ko'nikma va malakalarga ega qilish, tarbiyalash albatta oson ish emas. O'qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma'lumotlarni egallahsga ehtiyojli, bilish faolligi va aqliy mehnat madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish - muhim va davlat ahamiyatidagi vazifadir. O'qituvchi yosh qalblar kamolotining me'moridir, shunday ekan bugun u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o'rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb – hunar egallahlariga

ko'maklashishi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy vazifani hal etishga chog'lamog'i darkor.

O'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lishi, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashashi va kelajakni aniq ko'rishi kerak. Har bir o'qituvchi jamiyatning muammolarini, maqsad va vazifalarini tasavvur qilishi, ularni vijdon elagidan o'tkazib, aniq bajarish uchun bor imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishi kerak hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondoshishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchilik kasbi murakkab va ma'suliyatli kasb, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Shuning uchun, o'quvchi bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik – psixologik mahoratni ta'minlaydi.

Mustaqil Respublikamizning o'qituvchisi yuksak ma'naviy – axloqiy fazilat, xulq madaniyati va milliy istiqlol mafkurasini mukammal egallashi kerak bo'ladi. Zero, o'qituvchi – tarbiyachi yuksak ma'naviyat, axloq - odob, xulq madaniyatiga ega bo'lsadagina, talabalarga insoniy nuqtai - nazardan mehribon, saxovatli bo'la oladi, uni hamma hurmat qiladi.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham rivojlanishning mohiyati, uning sur'atlari insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'lik bulgan. Ma'naviyatli shaxs xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudrati hisoblanib, uning ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuch sifatida ta'riflandi. Xo'sh, bu sehrli qudrat, bu botiniy kuch qanday bunyodga keladi?

Qaysi yerda ma'naviy kamolot yuksak bo'lsa shu dargohda jamiyat rivojlanadi. Mustaqil O'zbekistonimiz oldida turgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayon ta'lim va tarbiya ishini takomillashtirish bilan chambarchas bog'lik. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singib kelgan. Milliy an'analarimiz va asriy qadriyatlarimizning hayotimizdagi o'rni yanada mustahkamlanmoqda.

Bugungi kunda «ma'naviyat nima?» degan savolga xilma-xil javoblar paydo bo'lmoqda. Bugun biz shaxsni birinchi o'ringa qo'yib, uning yaratuvchilik fazilati, ijtimoiy faolligi, ma'naviy qudratiga urg'u bermoqdamiz.

Ma'naviyat insondagi yaratuvchilik qudratidir, insonda shu qudratni uyg'otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo'linsa, barcha ulug'vor rejalarini amalga oshirish uchun voqe' imkon vujudga keladi. Masalaga bugungi jahon taraqqiyotining ilg'or tamoyillari darajasida yondoshilsa, milliy ta'limning eng muhim vazifasi xam ana shu imkonni shakllantirish, ya'ni yosh avlod ruhida yaratuvchilik kudratini uyg'otadi .

Ma'naviyat poydevori baquvvat bulmasa, unday insonning butun g'ayrati, jo'shqin faoliyati, oxir natijada, xalq va vatan uchun, bashariyat kelajagi uchun, qolaversa, uning o'z shaxsi uchun qanday xulosaga olib keladi, aytish qiyin.

Yangi O‘zbekistonni ma’naviy barkamol, ezgu g‘oyalar hayotiy e’tiqodi bo‘lgan insonlarga bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqarolik ma’naviyatini shakllantirish, ma’naviy – ma’rifiy ishlarni yuksak darajaga ko‘tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda yosh avlodni ma’naviyatini shakllantirib, ta’lib-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug’vor maqsadni amalga oshirish yo‘lidagi muhim qadamlardir.

Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy jihatdan mustahkamlanayotgan bir paytda yoshlarni tarixiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning dunyoqarashini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki millatning kelajagi bo‘lgan yoshlar to‘laqonli kasb egasi, o‘z vatanining vatanzarvariga aylanishi uchun har tomonlama chiniqishi zarur. Shundagina jamiyat hayotidagi barcha muammolar ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lgan insonlarning fidokorona halol mehnati natijasida hal qilinadi.

Inson hamisha dunyoning sir – sanoatlarini anglab yetishga intiladi. O‘zicha nimalarnidir yaratadi, quradi, buzadi. ularning mukammallik darajasi esa yaratuvchi inson ilmiga bog‘liqdir.

Dunyoqarash tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Tabiat va jamiyatdagi mavjud narsalarga, voqealarga, hodisalarga nazar tashlasak, ularning barchasida ajib mukammallik, mutonosiblik, latofat, nafislik mujassamlashganligining guvohi bo‘lamiz, bularning barchasi insonni zavqlantirishga, unga orom va ma’naviy kuch baxshga sabab bo‘ladi.

Insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlearning boyib borishiga yordam beradi.

Ushbu ijtimoiy o‘zgarishlar zaminida yuksak ma’naviyatli, intellektual salohiyatli barkamol shaxsning keng qamrovli yaratuvchanlik faoliyati yotadi. Uning aqliy va ruhiy boyligi, yuksak intilish va faolligi ko‘p jihatdan ma’naviy, jumladan, estetik va badiiy omillarga bog‘liqdir. Yoshlarda dunyoqarashni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Yoshlarimiz ongida yuksak ma’naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonli yo‘lida fidokorona mehnat qilish, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo‘lish, o‘zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik,

tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo‘lish kabi xislatlarni uyg‘otish hozirgi paytda muhim vazifalardan biri bo‘lmoqda . Yoshlarimiz tevarak atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida qancha ma’lumotlarga, bilimga ega bo‘lsa, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo‘ladi. Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insoni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholashi hamdir.

Dunyoqarash qotib qolgan, hech qachon o‘zgarmaydigan o‘lik g‘oyalar yig‘indisi emas. Jamiyatning o‘zgarishi bilan bir qatorda u ham doimo rivojlanib, mazmunan o‘zgarib turadi. Buni biz o‘z jamiyatimiz hayotidan yaqqol ko‘rib turibmiz. Mustaqillik tufayli endilikda umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizga asoslangan, hozirgi davr talabiga javob beradigan yangi mafkura yaratilmoqda va uning asosida kishilarda yangicha tafakkur, dunyoqarash shakllanib rivojlanmoqda.

Dunyoqarash kishilarning amaliy faoliyat yo‘nalishini belgilab beradigan qudratli ma’naviy kuchdir. Shuning uchun ham hozirgi vaqtida jamiyat a’zolari, birinchi navbatda yoshlar qalbini egallash, uning dunyoqarashiga muayyan maqsadlarni ko‘zlab ta’sir etish avj olib bormoqda.

Yoshlar dunyoqarashining rivojlanishida ma’naviy-ma’rifiy ishlar ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, uni samarali tashkil etish yoshlarda ma’naviy-axloqiy, estetik ongi shakllantirishga yordam beradi. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, estetik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish yoshlarda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, ularning ijtimoiy burchlarni to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Yoshlarda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘zini-o‘zi tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Yoshlarning go‘zallikni his qilishi va tushunishi, orzu-umidlari, estetik didi, go‘zallik qonunlari asosida ijod qilishi o‘z xatti-harakatlari bilan estetik boyliklar yaratishga tomon yuksalib, ravnaq topa boradi.

O‘quv-tarbiya jarayonida yoshlarda mavjud estetik ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Buning uchun Vatan va jahon badiiy adabiyoti hamda tafakkurining yetuk, sara namunalari asosida yoshlarda estetik dunyoqarashni rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat qaratiladi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari yuksak ma’naviyat ruhida, milliy mustaqillik ideallariga asoslangan tarzda yuksak axloqiy tamoyillar va e’tiqod negizida qaror topadi. Mana shunday vaziyatda birinchi navbatda yosh avlodni kamol toptirish, ularning dunyoqarashini rivojlantirish, qalbida milliy g‘oya, milliy mafkura, o‘z Vataniga mehr-sadoqat tuyg‘usini uyg‘otish, o‘zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosini, zamonaviy estetik dunyoqarashi, ma’naviy kamoloti uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur.

O‘zini anglagan, millat ma’naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatanini, oilasini taniydi. Shunday ekan, yoshlarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko‘nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotdagi voqeа – hodisalari va muammolariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish, Vatanni sevish, ajdodlari yaratgan bebaho ma’naviy javohirlarni imkon qadar egallash, ularni asrab – avaylash va boyitish, mamlakatimiz kelajagini, ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotning bugungi holatini chuqur tahlil qilish, jahondagi va mamlakatimizdagi ma’naviy, aqliy bilimlardan foydalanib, voqelikda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- Самиева Ш. Х., кизи Усмонова Г. Х. НАУЧНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ МОЛОДЕЖИ //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.
- ILMIY-AMALIY R., MA’RUZALAR T. O. P. FAN VA TEXNIKA TARAQQIYOTIDA INTELLEKTUAL YOSHLARNING O ‘RNI. – 2022.
- Нарзуллаева Ф., Мехмонова Н. Таълим муассасаларида бошқарув маданиятини такомиллаштириш-ижтимоий педагогик муаммо сифатида //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 92-94.